

ПАХТА ИШИ О'ЗБЕК ИШИ

Xolboyeva Sevinch Kamoliddin qizi

E-mail: khoboyevaliili@gmail.com

Qodirova Muxlisa Xayrullo qizi

E-mail: Mukhlisakadirova0812@gmail.com

Toshkent Kimyo Xalqaro Universiteti talabasi

Xholboyeva Sevinch Kamoliddin qizi

E-mail: khoboyevaliili@gmail.com

Qodirova Muxlisa Khayrullo qizi

E-mail: Mukhlisakadirova0812@gmail.com

Student of Kimyo International University in tashkent

Аннотасија: Tariximizda yo'l qo'yilgan xatoliklar va tuhmat ostida qolgan paxta ishi nomi ostidagi o'zbek ishini o'rganish.

Калит со'злар: СССР, paxta ishi, O'zbekiston Kompartiyasi, 16 plenum, Sobiq sho'ro, V. Usmonov, Qatag'on davri, Gdlyan, I. Karimov, Sobiq KPSS, Rafiq Nishonov, Sharof Rashidov.

Аннотация: Изучение узбекского дела под названием хлопкового дела, омраченного ошибками и клеветой в нашей истории.

Ключевые слова: СССР, хлопковое дело, Коммунистическая партия Узбекистана, 16-й пленум, бывший Совет, В. Усманов, период репрессий, Гдлян, И. Каримов, бывший КПСС, Рафик Нишанов, Шароф Рашидов

Resume: Studying the "Uzbek work" called the cotton works, darkened by mistakes and slander in our history

Key words: USSR, cotton works, Communist Party of Uzbekistan, 16th plenum, former Soviet, V. Usmanov, period of repression, Gdlyan, I. Karimov, former Communist Party of the Soviet Union, Rafik Nishanov, Sharof Rashidov.

1980 yil o'rtalariga kelib sobiq markazda nashr etilayotgan gazeta va jurnallarda kutilmaganda O'zbekiston haqida ketma-ket tanqidiy maqolalar chiqib boshlagan. Oradan ko'p o'tmay tanqid shiddatli tus oldi, biror soha tanqiddan chetda qolmadi. Eng achinarlisi bu millatning sha'ni qadr qimmatini yerga urishga obro'sini to'kishga qo'yilgan edi. Bundan ham daxshatlisi juda puxta o'ylangan bu xatti-harakatlar ortida o'ta yovuz maqsad yashirin edi. Odamlar nimalar bo'layotganini anglay olmas edi. Kechagina emasmidi o'zbek xalqini mehnatkash, mehmondo'st, bag'ri keng, deb ko'klarga ko'targan. Qoramehnatdan boshi chiqmay tonna tonna paxta behisob tillayu, pilla va yana boshqa nodir xomashyolar yetkazgan, lekin biri ikki bo'lmay amallab ro'zg'or tebratib kelayotgan xalq qanday qilib yoppasiga jinoyatchiga aylanib

qoldi?To'g'ri har bir el-ulus ichida yaxshi yomon bor.Ammo sobiq sho'ro hukumati va uning makkor amaldorlari ayrim shaxslarni emas balki butun O'zbeklarni,O'zbekistonni yomon otliqga chiqarishdi.

1984 yiling 23 iyunida O'zbekiston kompartiyasi markaziy qo'mitasi mash'um 16 plenumi bo'lib o'tadi.Plenumda so'zga chiquvchi notiqlar nutqlari sobiq KPSS markazi qo'mitasi raisi Lygachev boshchiligida uning hodimlari tomonidan tayyorlangan edi.Kadrlar bilan ishlashni yaxshilash degan so'zlar bilan niqoblandi, aslida sobiq markaz o'z qora niyatini amalga oshirishni mo'ljallagan edi.Qatag'onni avvaliga "paxta ishi" deb niqoblashdi go'yo paxta topshirish bo'yicha planlar qalbaki bajarilgan ko'p miqdorda paxta qo'shib yozilgan va shu yo'l bilan davlatning millionlab rublni o'zlashtirilgan.Aybnoma ham unga beriladigan jazo ham juda og'ir edi.Asilda nima bo'lgan edi?Sir emas sobiq sho'ro zamonida qo'shib yozish hamma joyda, hamma sohada bor edi.Bu illatning kelib chiqishiga jumladan paxtachilikdagi salbiy holatlarga ham oddiy mehnatkash odamlar emas balki,o'sha tuzum rahbari,shu tuzumda yuzada kelgan muhit aybdor.Qamoqxonalarda azob tortib yotgan minglab begunoh hamyurtlarimiz esa adolatni,ozodlikni yaratgandan iltijo qilib so'rashardi.Sobiq sho'ro tuzumi davrida necha kishi otib tashlangani,osilgani yoki qamoqda hayotdan ko'z yumgani aniq aytish qiyin.Kim birinchi bo'lib qatl etilgani ham noma'lum ammo qizil imperiya sudi qarori bilan otilgan so'nggi odam O'zbekiston fuqarosi V.Usmonov bo'lgan.Paxta tozalash Vaziri V.Usmonov noqonuniy tergov usullari va soxta guvohlar asosidan o'lim jazosiga hukm qilingan va sud hukmi ijro etilib oradan o'n ikki yil o'tib 1998 yilda Usmonov batamom oqlanadi.Jinoiy ish esa uning xatti harakatlarida jinoyat tarkibi yo'qligi sababli oqlanadi.Qatag'on tobora avj olib borayotgan edi.Gdlyan guruhi bilan bir vaqtda Svidersla boshqliq yana bir guruh begunos odamlarni zor qaqshatar edi.Bu guruh izidan mayib majruh odamlar,murdalar qolgan.Bundanda daxshatli keng ko'lamlı qirg'inni sobiq markaz yo'llammasi bilan kelib Respublika prokuraturasi ichki ishlar vaziri rahbarlik lavozimlarini egallab bo'lgan Butorlin,Gaydanov,Laptiv,Gitarenka singari jallodlar olib borishayotgandi.O'zbek xalqi xirmon-xirmon paxta berib o'zimiz chitga zor bolganmiz.YU.Andropov sho'ro taxtiga chiqishi bilan SH.Rashidovdan o'ch olishga kirishadi.U o'z kekini qo'rg'oshin bilan qorgan edi."O'zbek ishi" yohud "paxta ishi" deb nomlangan bo'htondan iborat jazo jarayonida 800 ta jinoyat ishi qo'zg'atilib,4000 nafar begunoh odam qamoqqa olinadi.Bu sud orqali jazo olganlar aslida "o'zbek ishi" bir necha o'n ming yurtdoshlarimizning achchiq qismatini qamrab olgani haqida atoqli yurist A.Polvonzodaning chiqishlarida batafsil yozildi.Sudlanuvchilar ayollari,farzandlari ko'chaga haydalib turli xo'rlash va kamsitilishlarga duchor etiladi.1986 yil Qashqadaryoda qatag'ondan jabr ko'rmagan soha qolmadi.Ko'plab xo'jalik rahbarlari mutaxassislar ishidan olingan, qamoqqa tashlangan yuzlab begunohlar tergovga qatnashayotgan odamlar qo'rquvdan taxlikaga tushib qolgan.Qashqadaryo o't ichida

qolgan vaqtda I.Karimov viloyatga rahbar etib tayinlandi. Aynan I.Karimov rahbarligida Qashqadaryo gullab yashnadi. U tufayli qancha insonlar asrab qolindi. Afsuski boshqa viloyatlarda qamoqqa olishlar davom etayotgandi. Bu o'yinga aylanib lim ko'p qammoqa olishgacha borishdi. Tarixning taqozosi ollohning marhamati ila 1989 yil 23 iyunda I.Karimov Respublikaga rahbar etib taryinlandi. Uning oldida bir biridan chigal vazifalar turar edi. Unga o'zidan oldin ikki rahbardan meros bo'lib qolgan har jihatdan vayron etilgan mamlakat qolgan edi. Iqtisodiyot, qishloq xo'jaligi kadrlar siyosati tamoman izidan chiqgan. I.Karimov oldingi rahbarlarga o'xshab sobiq kommunistik partiya markazlariga hamdu sanolar aytmay achchiq haqiqatni ro'y rost gapirdi. 1990 yil iyul oyi boshida Sobiq KPSSning 28 syezdi bo'lib o'tgandi unda sao'zga chiqqan I.Karimov yanada keskin talab qo'ydi. 1989 yilgacha "paxta ishi" "o'zbek ishi" deb berilgan bo'xton bilan yigirma besh yildan ziyod jinoiy ish qo'zg'atilgan bo'lib 45000 dan ortiq, jinoiy javobgarlikga tortilganlar uch ming olti yuz o'n ikki kishi. Sudlar o'sha vaqtda O'zbekiston qamoqxonalariida bo'sh joy qolmaganligi uchun Rossiya koloniyalariga olib kelgan. I.Karimov talabi bilan paxta ishi komissiyasi tuziladi va bir qator huquqbuzarliklar aniqlanadi. Gdlyan va boshqalar Respublikaga zarar miqdori bir mln dollar deb ko'rsatgan. Paxta ishi bo'yicha sudlanganlarning asosiy qismi tergov materiallari bo'yicha sud hukmi ham sud hukmi bo'yicha ham bir tiyin o'zlashtirilmagan. Ular paxta plani bajaralilgan haqidagi hujjatlarga tazyiq bilan imzo qo'ydirilgan. Xatto paxta plani bajarilgan xo'jaliklar rahbari ham qo'shib yozishga majbur qilingan. Sobiq markaz uchun paxt ishi bir bahona bolgan aslini olganda maqsad qatag'on o'tkazilishi kerak edi. Rafiq Nishonov respublikaning rahbari sifatida o'z yurtini himoya qilish o'rniga "аргументы и факты" haftanomasi 1988 yil sentabr oyidagi 38 sonida e'lon qilingan intervyusida faxrlanib KPSS MK keyingi to'rt yil ichida O'zbekistonda yuzlab tajribali kadrlar yubordi. Avvalo Respublikaning shunday ko'lamli yordamga 30 yil mobaynida bir marta oshirilganni ta'kidlamoqchiman. Yangi xodimlarning kelishi bizning chinakam baxtimiz bo'ldi. Respublikada so'nggi 58 mingdan mas'ul xodim vazifadan bo'shaldi. Men ozim shaxsan tergov guruhi ishini bag'oyat ijobiy baholaganman. Biz SSSR prokuroturasining hodimlari bilan qo'lni qo'lga berib ish olib bormoqdamiz.

SH.Rashidov bilan ishlagan unga yaqin bo'lgan odamlarni javobgarlikga tortishda jon kuydirib ishlamoqdalar. Nishonov kimligi kim bo'lib xotirangizga qolgani o'zingizga havola. 1990 yil 13 iyunda SSSR bosh prokuroturasini va adliya vazirligiga xat bilan chiqishib, komissiya xulosalarini batafsil ko'rsatib sudlanganlarni oqlash masalasi qo'yilgandi. Ammo xatda hech qanday javob kelmadi. Komissiyaga qayta ko'rib chiqishni talab qildi. Sobiq ittifoq oliy sudi rais Smalyansov oliy sudimizning mazkur ishlar bo'yicha qarorni bekor qilishni talab qildi. SSSR prokrori Trubin esa bu qaror go'yo ittifoq qoniga zid ekanligini ko'rsatib berib uni bekor qilishni va paxta ishi

komissiyasini tarqatish, Oliy sud rahbaryatiga nisbatan chora ko'rishni talab qildi. Komissiyaga atroflicha davom etayotgan noo'rin mayda gaplar chek qo'yilishi uchun Moskvadagi eng obro'li dunyoga taniqli huquqshunos olimga murojaat qilindi. U O'zbekistonning Oliy sudi qarorlari to'g'ri ekanini va umumittifoq qarorlariga zid emasligi haqida o'z tavsiyasini beradi. 40 ming tonlik jinoyat ishlari ko'rib chiqiladi. Paxta ishi bo'yicha komissiyaning eng muhim xizmati shundaki sudlanganlarni aksariyati o'zlari hayotligida yuzlari yorug' bo'ldi. Ularning farzandlari jinoyatchining farzandi tamg'asidam ozod etildi. Xullas sovet rejimimng paxta ishi oqibatida O'zbekistonda minglab kishilar nohaq ravishda jazolandi. Xalq xo'jaligi sohalarida qo'shib yozish, poraxo'rlik va korrupsiyaga aloqador jinoyetlar SSSR ning deyarli barcha hududlarida yuz bergan bo'lsa ham "tajriba maydoni" sifatida O'zbekiston tanlanadi hamda jinoiy ishga aloqador kishilardan tashaqari ko'plab odamlar jinoiy javobgarlikga tortiladi. Kommunistik mafkuraning qatag'on qilichi bu bilan cheklanmasdan paxta ishini o'zbeklar ishiga aylantrishga urindi. Qatag'on siyosatini amalga oshirishda Markaziy rahbariyati va vakillaridan tashqari O'zbekistonning o'sha paytdagi siyosiy rahbariyati, xalqimiz orasidan chiqqan hamd tergovchilar bilan hamkorlik qilgan va ularning g'arazli ishlariga ko'maklashgan ayrim qo'rqqoq va xoinlar ham faollik ko'rsatadi. Bu tarixning achchiq haqiqati.

Adabiyotlar ro'yxati

1. Q. Rajabov, A. Zamonov, "O'zbekistontarixi". Q. Usmonov, M. Sodiqov, S. Burxonova "O'zbekiston tarixi".